



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 14-yanvar, chorshanba,
3 (24.183)-son

O'zbek xalq
maqoli

Vatanni
sotgan er
bo'lmas

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

MUDOFAA DOKTRINAMIZ QAYTA KO'RIB CHIQILADI

► 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

► Yig'ilishda sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasida hamda 1997-yildagi Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish vaqti kelgani aytiladi.

► 1-apreldan boshlab ofitserlarning ko'p yillik xizmati uchun ustama haqi 2 baravarga oshiriladi.

► Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar va serjantlarning ish haqi 10 foizga oshiriladi.


► Hududiy mudofaa organlarining harbiy bo'lmagan xodimlari mehnatiga haq to'lash joriy yilda 20 foizga, kelgusi yilda yana 50 foizga oshiriladi.

► 30 yildan ortiq ish tajiga ega bo'lgan harbiy xizmatchilarga pensiya hisoblashda hisobga olinadigan pul ta'minoti miqdori 75 foizdan 100 foizgacha oshiriladi.

► Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi.

► Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlaydi.

► Armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontraktga kirsalar, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.



O'TKIR NIGOHI BILAN shaxdam qadam bos!

Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi hamda 14-yanvar — Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy bo'linmalarining tantanali yurishi bo'lib o'tdi.

Islom Karimov xiyobonidan boshlangan yurish Ko'ksaroy maydonigacha davom etib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan uygunlashdi.

Tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari

Rustam Qobilov va harbiy soha mas'ul-lari so'zga chiqib, harbiy-vatanparvarlik oyligining ahamiyati, milliy armiyamiz salohiyatini yanada oshirish, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish borasi-

da amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirdi.

Marosim davomida harbiy xizmatchilarning saf mashqlari va qo'l jangi bo'yicha sahnalashtirilgan chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek, zamonaviy qurol-aslahalar va jangovar texnikalar ko'rgazmasi o'tkazildi. Yoshlar harbiy texnika va qurol-yarog'lar bilan tanishib, yurtimiz osoyishtaligi posbonlarining

faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

— O'g'lim harbiy bo'lishga qiziqadi, shu tadbir haqida eshitib, ataylab keldik, — deydi ishtixonlik Munira Bozorova. — Kelajakda o'g'lim ham Vatanga naf keltiradigan, haqiqiy mard yigit bo'lib ulg'ayishini istayman. Harbiylarimiz va ularning faoliyati yoshlar uchun ibrat bo'ldi.

F.RO'ZIBOYEV.

Viloyat pedagogik mahorat markazida "Zarafshon" gazetasi va Zarnews.uz veb-sayti vakillari ishtirokida ijodiy uchrashuv o'tkazildi



Samarqand davlat chet tillar institutida o'n ikki tilda milliy kontent tayyorlaydigan "Media-markaz" faoliyat boshladi



Ro'yxat ortida inson taqdiri



Ertadan mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari boshlanadi. Bu jarayon quyidagi muhim masalalarga oydinlik kiritadi:

- aholining yosh tarkibi va mehnat salohiyati;
- shahar va qishloqlar o'rtasidagi demografik o'zgarishlar;
- ta'lim, tibbiyot, uy-joy va infratuzilmaga bo'lgan real ehtiyojlar;
- ichki va tashqi migratsiya jarayonlari.

XIX asarda Chor Rossiyasini bizning hududlarni bosib olishga undagan va bu haqda tinmay tashviqot olib borgan F.Dostoyevskiy shunday yozadi: "bizni g'arbliliklar odam o'rnida ko'rmaydilar, bizni doim pastga urishadi. Biz baribir ularning oldida "zoti past o'aris, ikkinchi toifa odam" bo'lib qolaveramiz. Lekin, O'rta osiyoliklar bizni madaniyatli deb o'ylashadi va ularning biz haqimizda deyarli tushunchasi yo'q. Biz u yerni bosib olsak, ularning oldida oliy toifali, madaniyatli odam bo'lib ko'rinamiz, shuning uchun ham u yerni bosib olishimiz kerak. Bizning pandavaqi generallarimiz nima qilayapti hayronman, men generallarimizni O'rta Osiyoga hujum qilish uchun chaqiramam. Biz yevropaliklar uchun madaniyatsiz bo'lib, sharmanda bo'lgandan ko'ra, O'rta Osiyoda madaniyatli odam sifatida ko'ringanimiz yaxshi".

F.Dostoyevskiyini ayblab yurardim, keyin bu fikrimdan voz kechganman. Sababi juda oddiy — o'zimni urib ketganidan. F. Dostoyevskiy bir daho va geosiyosiy o'yinlarni tafakkur ko'zi bilan ko'ra olgan. Shuning uchun ham tafakkur odamlarining

Jahongir Bulbulo'g'li sindromi

(Vladimir Solovyov)



kasalligi bo'lgan "men" emas "biz" ko'zi bilan qaragan dunyoga. Rossiya uning dardi va kelajagi bo'lgan. Biroq shuncha fidoyiligiga qaramasdan, yaxshilik ko'rma-gan va tizim uni hayotligidayoq xor qilgan. Aybni o'zimizdan ko'rishim, bizda uning bu yozganlari haqida o'sha paytda muhokama qila oladigan qobiliyat, tafakkur va tushun-cha ham bo'lmaganligidir. Albatta, tamo-man no'noq bo'lganmiz deya olmayman, biroq tafakkur qilgan va buni tilga chiqarib gapirganlar yo otilgan, yo kesilgan, yo yo'q qilingan.

Tushunchalar torligi, dunyo ishlaridan

paytda gugurt bir tiyin bo'lgan" falsafasini kunda kunora eshitasiz.

Nimalarnidir o'zgartirishga harakat qil-yap-miz, eng kamida xalqaro siyosat, muhit va geosiyosat haqida gapiryapmiz. Harholda, Bulbulo'g'lining (gap ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan V.Solovyovning Markaziy Osiyo bilan bog'liq iddaolari haqida) bizga nis-batan aytgan gaplarini ochiq muhokama qila olyapmiz. Biroq bu yetarli mi?

Mendan so'rasangiz, aslo. Kamchiliklar-imiz yetarli. Biroq shimolning bizga bo'layot-gan bunday poxoldo'qlarini, kamsitish

siyosatiga jim turish siyosatini ham oqlab bo'lmaydi.

SSSR degan qullik zanjiridan ozod bo'lgan hududlar orasida O'zbekiston va Qozog'iston bilan birga, boshqa qo'shni davlatlar o'z yo'liga ega bo'layotgani, endi bu hududlar global dunyoda katta ahami-yat kasb etayotgani, kelajagi haqiqatda yuksak taraqqiyot va marralar uchun ochilib borayotgani, agar shunday mantiqli siyosat davom etsa, nojo'ya siyosati uchun dunyodan uzib tashlanayotgan va oxir-oqibat parchalanishga mahkum bo'lgan Rossiya chindan qo'rqitay bosh-ladi va bu unga kamsitilish, tashlandiqlik hissini beryapti. Shuning uchun tuturiq-siz bayonotlar bilan o'zining boyligini his qildirish va tahdid yo'lidan foydalanish bir chora sifatida ko'rilmogda.

Gapni uzaytirishimizdan foyda yo'q, menimcha, aksar aholimiz gap nimada ekanligini allaqachon anglab ulgurdi. Biz-dan talab qilinadigan, vaqt yo'qotmaslik va XIX asrda qilingan xatoga yana tushib qolmasligimizdir. Zero, bugun dunyoning istalgan burchigida nima bo'layotganini soniyalar ichida bilib oladigan davrda yasha-yapmiz. Bu esa bizga berilgan katta ne'mat-dir. Harakatlarimiz ham shunga yarasha bo'lishi lozim. Tashqaridagi "dushman" aniq, bizni ichkarimizdan o'ymoqchi bo'lganlardan ehtiyot bo'lishimiz kerak.

Fazliddin MADIYEV.

► Kun mavzusi



Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 2026-yilda viloyatimizdagi yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer va mol-mulk soliqlari hamda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari tasdiqlandi.

- Yer solig'i bo'yicha mahalliy kengashlarga qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'i stavkalarining aniq miqdorlarini belgilash, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash vakolati berilgan, – **deydi viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i Farrux Boboyev.** - Belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab soliq stavkalarini belgilash nazarda tutilgan.

Viloyatimizda 2025-yil uchun yuridik shaxslarga 1 gektar yer maydoni bo'yicha 48 million 400 ming so'm, jismoniy shaxslar uchun 1 kvadrat metrga 433 so'm belgilangandi. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan yuridik shaxslar uchun 1 gektar yer maydoni uchun 51,8 million so'm va jismoniy shaxslar uchun 1 kvadrat metr uchun 463 so'm miqdorida belgilandi.

Viloyat bo'yicha muhokamaga qo'yilgan noturar yer maydonlari uchun o'rtacha 0,9 koeffitsient, turar yer maydonlari uchun 0,8 koeffitsient qo'llanildi. Bunda soliq stavkalarini belgilashda xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 2025-yilda yer solig'i stavkalarini belgilash bo'yicha qabul qilingan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlarini qo'llash to'g'risidagi qarordan kelib chiqib, 2026-yil uchun ham mazkur koeffitsientlar deyarli o'zgartirishsiz qoldirilib, bazaviy stavkalarining o'rtacha 8 foiz-

ga oshishi hisobga olindi.

Mas'ulning qayd etishicha, mulk solig'ida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kvadrat metri uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymat viloyat markazlarida – 2350 so'm (2025-yilda 2200 so'm), boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – 1390 so'm (2025-yilda 1300 so'm) etib belgilangan. Xuddi shunday mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 1 kvadrat metr uchun o'rnatilgan minimal miqdorlariga nisbatan 2 gacha oshiruvchi koeffitsient qo'llaniladi. Noturar obyektlar bo'yicha 1 kvadrat metr uchun viloyat markazlarida – 28400 so'm (2025-yilda 26500 so'm), boshqa shahar va tumanlarda – 11800 so'm (2025-yilda 11000 so'm), turar obyektlar bo'yicha viloyat markazlarida – 14500 so'm (2025-yilda 13500 so'm). Boshqa shahar va tumanlarda – 5900 so'm (2025-yilda 5500 so'm) etib belgilangan va o'rtacha 1,14 oshiruvchi koeffitsient qo'llanildi.

Soliq stavkalarini belgilashda 2025-yilda yer solig'i stavkalarini oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlarini qo'llash to'g'risidagi qarordan kelib chiqib, 2026-yil uchun ham mazkur koeffitsientlar deyarli o'zgartirishsiz qoldirilib, bazaviy stavkalarining o'rtacha 8 foizga oshishi hisobga olindi.

O'.XUDOYBERDIYEV.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yaqin kelajakdagi ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi tarixiy va dasturiy hujjatga aylandi.

Ushbu muhim hujjatda kambag'allikni qisqartirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, mahalla tizimi samaradorligini oshirish hamda zo'ravonlikka qarshi murosasiz kurashish kabi eng dolzarb masalalar bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi.

Davlat rahbari o'z nutqida kambag'allik muammosiga yondashuvni tubdan o'zgartirish zarurligini alohida ta'kidlab o'tdi. Aynan shu bois endilikda asosiy e'tibor moddiy yordam ko'rsatishga emas, balki aholida daromad topish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Tahlillarga ko'ra, ijtimoiy nafaqa vaqtinchalik madad bo'lsa, egallangan kasb-hunar va barqaror ish o'rni muammoni tizimli hal etishning yagona va to'g'ri yo'li hisoblanadi.

Shu o'rinda murojaatnomada xotin-qizlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash eng dolzarb vazifa sifatida belgilanganini alohida qayd etish lozim. Quvonarlisi shundaki, bu murakkab jarayonda bugun davlat tuzilmalari bilan bir qatorda nodavlat

Islohotlarning yangi bosqichi:

davlat va jamiyat hamkorligi inson qadri uchun

notijorat tashkilotlari (NNT) ham faol ishtirok etmoqda.

"SABR" respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi hamkor NNTlar bilan birgalikda qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi ayollar uchun "raqamli iqtisodiyot asoslari", "elektron tijorat", "mikrobiznes va o'zini o'zi band qilish" yo'nalishlarida zamon talablariga mos yangi o'quv modullarini joriy qildi. Natijada tinglovchilar nafaqat nazariy bilim oldi, balki real daromad manbaiga ega bo'lishdi.

Bugungi kunda ijtimoiy xizmatlar va bandlik masalalari bevosita mahalla darajasida hal etilyapti. NNTlar "mahalla yettiligi" bilan yaqin hamkorlikda ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni aniqlab, ularni manzilli qo'llab-quvvatlashga erishmoqda. Xususan, 2025-yilning o'zida markazimiz tomonidan 3000 nafardan ortiq xotin-qizlar va yoshlar kasb-hunarga o'qitildi. Ularning aksariyati o'z

yashash hududida mehnat faoliyatini boshlab, ijtimoiy daftarlardan chiqarilishi ta'minlangani hamkorlikning samarasi hisoblanadi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish masalasining davlat rahbarining bevosita nazoratiga olingani jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda jazo muqarrarligini ta'minlash bilan birga, profilaktika va reabilitatsiya tizimiga e'tibor kuchaytirildi. Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayolning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishi zo'ravonlik holatlarining oldini olishda eng muhim himoya hisoblanadi.

Muxtasar qilib aytganda, davlat, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi belgilangan yuksak ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishning eng samarali mexanizmidir.

Mavladaxon SHIRINOVA,
"SABR" respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi direktori.



Jismiga armatura kirgan

yigitning hayoti asrab qolindi

Toyloq tumanidagi korxonalardan birida baxtsiz hodisa yuz berdi. 26 yoshli yigit ishlab chiqarish korxonasida stanokda ishlayotgan paytda ehtiyotsizlik oqibatida barmoqlari uzilib, jismiga jiddiy shikast yetdi.

Bemor zudlik bilan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi viloyat filialiga keltirildi. Markazda bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatildi va jarrohlik amaliyoti yordamida uning barmoqlari ulanib, asl holiga qaytarildi.



- Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o'rni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda, bu quvonarli holat, - deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi viloyat filiali oliy toifali jarrohi Yo'ldosh Kuliyev. - Lekin korxonalarda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, ishchi-xodimlarni bu masalada o'qitishni tashkil etish lozim. Chunki keyingi paytlarda markazimizga aynan korxonalarda sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalar tufayli jiddiy jarohatlar bilan kelayotgan bemorlar soni ko'paymoqda. Misol uchun, yaqinda qurilish sohasida mehnat qilayotgan bir fuqaroning ko'krak qafasidan armatura kirib, yelkasidan chiqib ketgan holatda markazimizga shoshilinch yetkazildi. Ko'rinishning o'zi dahshatli edi. Tezkor operatsiyadan keyin bu bemor hayoti saqlab qolindi. Garchi uning hayoti asrab qolingani bo'lsa-da, u avvalgiday jismonan sog'lom bo'ladi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Abduvali XUDOYOROV.



Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, keyingi yillarda tamaki va nikotin mahsulotlarining yangi turlari, xususan, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni va ular uchun suyuqliklarni mamlakatimizga olib kirish hamda muomalaga kiritish hollari ko'paygan. Bu esa ushbu mahsulotlar aholi ayniqsa, bolalar va yoshlar tomonidan iste'mol qilinishining ortishiga olib kelmoqda.

Shu sababli «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini va nikotinni iste'mol qilish muomalalarining muomalasiga doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan.

Mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlarini, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni va ular uchun suyuqliklarni ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, shuningdek, olib kirish va olib chiqish uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Bunda ushbu harakatlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilgan va muomalasi taqiqlangan mahsulotlarni topshirgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jinoyat kodeksining 186-1-moddasining yangi tahririga ko'ra, (eski tahrirdagi nomi: Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish yoki ishlab chiqarish) nafaqat an'anaviy tamaki va alkogol, balki tamakini qizdirish tizimlari hamda nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari bo'yicha noqonuniy harakatlar ham jinoyi javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jumladan, moddaning birinchi qismida etil spirtini, alkogolli va tamaki mahsulotlarini, shuningdek, tamakini qizdirish tizimlarini qonunga xilof ravishda

muomalaga kiritish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan 400 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'rsatib o'tildi.

Moddaning ikkinchi qismida etil spirtini, alkogolli va tamaki mahsulotlarini, shuningdek, tamakini qizdirish tizimlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan 400 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlarini, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni tayyorlash, olish, saqlash, tashish, o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki olib chiqish, shuningdek, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni ishlab chiqarish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan harakatlar, juda ko'p miqdorda, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, 7 yildan 12

yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 186-1-moddasiga ham qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, etil spirtini, alkogolli va tamaki mahsulotlarini, shuningdek, tamakini qizdirish tizimlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlarini, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni tayyorlash, olish, saqlash, tashish, o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki olib chiqish, shuningdek, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan elektron sigaretalarni ishlab chiqarish huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va O'zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlarini, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni topshirsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi belgilandi.

Kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi Qonunda nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarining, shu jumladan, elektron sigaretalarning va ular uchun suyuqliklarning aylanishiga doir taqiq belgilanmoqda.

Ushbu qonun aholining hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga, millat genofondini saqlashga, atrof-muhitni tamaki va nikotin mahsulotlarining yangi turlaridan muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Sherzod SHODMONOV,
IIV transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti tergov boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchi.

OGOH BOʻLING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini koʻrish gʻoyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqoʻrgʻon, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobod, Payariq tumanlari hududi boʻylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan taʼminlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni ogohlikka chorlaymiz.



Ekspluatatsiyaning normal sharoitini taʼminlash va quvurlarning shikastlanishiga (ularning har qanday oʻtkazilishidan qatʼi nazar) yoʻl qoʻymaslik uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" toʻgʻrisidagi 651-sonli qarori talablari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari"ga asosan muhofaza hududlari belgilangan. Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, krantugunlari, kompressor stansiyalari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EXZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), aloqa texnologiyasi inshootlari va uzatkichlari, gaz quvurlari trassasi boʻylab yotqizilgan yoʻllar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qoʻyilmaydi. Ular mazkur maydonda faqat magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qatʼiy rioya qilgan holda qishloq xoʻjaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borishlari mumkin. Quvurlar yotqizilgan hududda turarjoy mavzelari, aholi punktlari, sanoat, qishloq xoʻjaligi korxonalari, imoratlar (turar-joy va noturarjoy binolar) qurilishi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" toʻgʻrisidagi 651-sonli qarori talablari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari"ga asoslangan. Magistral gaz quvurlari loyihalashtirishning qurilish normalari va qoidalari boʻyicha gaz quvuridan bino yoxud inshootgacha boʻlgan eng kam masofaga qatʼiy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Quvurlarning muhofaza hududida qu-

vurlardan meʼyorida foydalanishga halaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, inshootlar tiklash;
- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, oʻgʻit va materiallarni toʻplash, pichan gʻamlash, ot bogʻlaydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollariini saqlash, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va tayyorlash ishlarini amalga oshirish;
- quvur trassasi ustidan oʻtish va kesib oʻtish inshootlarini qurish, traktor va boshqa



mexanizmlar uchun saqlash joylarini barpo etish, jamoat bogʻlari va polizlarini joylashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va togʻ ishlarini amalga oshirish, tuproq (grunt) olishni rejalashtirish;
- melioratsiya ishlarini amalga oshirish, sugʻorish, quritish tarmoqlarini qurish;
- nazorat-oʻlchov quduqlari, nazorat punktlari, signal beruvchi, ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini oʻzgartirish;

- kabel aloqasi xizmat koʻrsatmaydigan tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va joʻmraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya taʼminoti va telemexanikasini yoqish, oʻchirish;
- belgilangan hududda turli xil chiqindi toʻplamlarini yigʻish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini toʻkish;
- quvurlarni buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida toʻkilishdan saqlovchi, yer osti suvini oʻtkazuvchi inshootlarni, qirgʻoqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarni buzish;
- olov yoqish yoki shunga oʻxshash ochiq-yopiq olov manbalarini uyushtirish;
- himoya hududlarida sunʼiy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

Magistral gaz quvurlari himoya qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga koʻra javobgarlikka tortiladi.

Muhofaza hududi:

- quvur trassasi boʻylab xavfsizlik yer uchastkasi koʻrinishida, quvur oʻqining har tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan boʻladi;
- qishloq xoʻjaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur oʻqining har tomonidan 25 metr masofada oʻtadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;
- koʻp tarmoqli trassa boʻylab chekka quvur oʻqining har tomonidan 50 metr masofada oʻtgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni koʻrinishidadir.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sigʻimlar atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida koʻrsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tushagan chiziqli bilan chegaralangan uchastka koʻrinishida boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahk-



masining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash" toʻgʻrisidagi 651-sonli qarori talablari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari"ga asosan magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Belgilangan xavfli hudud radiusi:

- diametri 300 mm.gacha boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 100 metr;
- diametri 300 mm.dan 600 mm.gacha boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 150 metr;
- diametri 600 mm.dan 800 mm.gacha boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 200 metr;
- diametri 800 mm.dan 1000 mm.gacha boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 250 metr;
- diametri 1000 mm.dan 1200 mm.gacha boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 300 metr;
- diametri 1200 mm.dan yuqori boʻlgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur oʻqidan har ikki tarafga 350 metrni tashkil etadi.

Shuningdek, gaz taqsimlash shoxobchalari har qanday ishlarni olib borish

taqiqlanadi) 150 metr qilib belgilangan.

Shuning bilan birgalikda, aholi eʼtiborini qoʻyidagilarga qaratmoqchimiz:

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga koʻra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalariга mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmoqda. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzib tashlanishi kerak boʻladi.

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalari yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan boʻlsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin ushbu gaz quvurlariga xizmat koʻrsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish koʻrish tavsiya etiladi. Bu bilan fuqarolarimiz oʻzboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bogʻliq ortiqcha asab-buzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli boʻlishadi.

Boshqarmamiz manzili: Narpay tumani Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi. Telefonlar: +99866-432-41-91, +99893-172-22-47.

Qahramon FAYZULLAYEV, "Zirabuloq magistral gaz quvurlari" boshqarmasi boshligʻi.

OʻZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI
FEDERATSIYASINING SAMARQAND
VILOYATI KENGASHI

**Aziz yurt posbonlari!
Barchangizni**

14-yanvar

bilan tabriklaymiz!



Vatanni himoya qilish, uni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash yurtning har bir farzandi vazifasidir. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda oʻz burchini oʻtab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayramidir.

Barchangizga mustahkam sogʻliq, ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt, xonadoningizga tinchlik, fayzu baraka tilaymiz!

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sviridova Lenara Ernestovna (2025-yil 31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Baymurodov Xayrulla Miliyevichga (2024-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy koʻchasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ashurov Tursun Xalimovichga (2021-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Norrabegim koʻchasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Djamalov Saloxitdina (2022-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Oʻzbekiston koʻchasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Xripunov Yuriy Nikolayevichga (2025-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich

notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sugʻdiyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Tadiyev Mamad Davronovichga (2003-yil 7-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Oʻzbekiston koʻchasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Tursunov Davlat Alimovichga (2020-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Oʻzbekiston koʻchasi, 35-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Begimova Halimaga (2023-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur koʻchasi.

BEKOR QILINADI
"MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sugʻurta tashkiloti Samarqand shahri Sh.Rustaveli koʻchasi, 46-uy manzilida joylashgan yertoʻla binosining qurilish tagidagi maydoni 75,89 m.kv, foydali maydoni 61,82 m.kv ni tashkil etgan qismi (0001 literdagi 17 va 19-xonalari) uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vo-

Sotuvchi "TAKS" MCHJ direktori Sh.Mukumov va sotib oluvchi Sirojev Baxtiyor Kiyomovich oʻrtasida Samarqand shahri Sh.Rustaveli koʻchasi, 46-uy manzilida joylashgan yertoʻla binosining qurilish tagidagi maydoni 75,89 m.kv, foydali maydoni 61,82 m.kv ni tashkil etgan qismi (0001 literdagi 17 va 19-xonalari) uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vo-

sitachiligida 2025-yil 2-aprelda oʻtkazilgan toʻgʻridan-toʻgʻri muzokaralar natijasida tuzilgan 146-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi Irga-shev Zokirjon Valiyevich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30105653820085) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "DILMUR-OD RAXMATZODA BOGʻLARI" fermer xoʻjaligining (STIR: 301093059) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Djavanov Akbar Nematovichga 2020-yil 31-yanvarda Samarqand viloyati IIB YHXB 3-TRIB tomonidan berilgan AF 1432562 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini soʻraymiz.

Telefon: +99888-615-07-67.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektorati, kasaba uyushmasi, psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti jamoasi sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida dotsenti Maʼruf Sherovga otasi

BOLTA OTAning vafoti munosabati bilan taʼziya izhor etadi.

Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Samarqand viloyati kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Urgut tumani kengashi raisi Gʻayrat Jamolovga akasi **Usmon JAMOLOVning** vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Samarqand viloyati kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari "Nuroni" jamgʻarmasi Urgut tumani boʻlimi raisi

Farmon AZIZOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila aʼzolari va yaqinlariga taʼziya izhor etadi.

Муסיқа илмининг жонкуяри

Ўзбек муסיқаси — халқимизнинг кўп асрлик тарихи, дунёқараши ва руҳий кечинмаларини ўзида мужассам этган бебаҳо маънавий мерос. Бу меросни асраб-авайлаш, ёш авлод қалбига сингдириш ва уни замон талаблари билан уйғун ҳолда ривожлантириш муסיқа педагогикасининг асосий вазифасидир. Ана шу ишга умрини бағишлаган фидойи устозлар сафида Самарқанд давлат педагогика институти муסיқа таълими кафедраси профессори, педагогика фанлари номзоди Исматилла Қудратовнинг ўз ўрни бор.

Музейshunos tadqiqotchi Mahmudxon Yunusov Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi arxeologiya jamg'armasida saqlanayotgan Shayboniy shahzoda Abu Said Bahodirxon o'g'li Sulton Said Bahodirxonga tegishli qabrtoshning bir bo'lagi Fransiyaning dunyoga mashhur Luvr muzeyida ekanligi haqida ma'lum qildi.

Shayboniy shahzoda qabrtoshining bir bo'lagi Luvr muzeyida saqlanmoqda

– Men 2022-yilda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi arxeologiya jamg'armasida shayboniylar sulolasi vakili Abu Said Bahodirxon o'g'li Sulton Said Bahodirxonga tegishli qabr toshining bo'laklari saqlanishi haqida maqola tayyorlagandim, – deydi Mahmudxon Yunusov. – Ya'ni, bir butun qabrtoshning ikki bo'lagi hajmi balandligi 40 santimetr, uzunligi 132 santimetr, qalinligi 36,5 santimetr bo'lib, kirim kitoblaridagi tasnifida “1930-yilgacha kelib tushgan”, deya qayd etilgan.

Qabrtoshlar Samarqand muzeyiga olib kelingunga qadar 5 yil mobaynida Samarqand shahri Petrovskiy ko'chasi 31-uyda Nediger ismli ayol xonadonida saqlangan. Bu vaqt ichida turli kolleksionerlar uy egasi bilan qabrtoshlarni sotib olish uchun savdolashgan.

Qabrtosh haqidagi ovozlar Samarqand harbiy gubernatoriga yetib borgach, Samarqand shahar 3-uchastka pristavi Mo'minjon Muslimjonov qabrtoshlarning o'g'irlanib Petrovskiy ko'chasi 31-uyga olib kelinishi yuzasidan 1905-yil 5-6-avgust kunlari surishtiruv o'tkazadi va dalolatnoma tuzadi. Dalolatnomaga ko'ra, uy egasi ma'lum qiladiki, qabrtoshlarni vaqtincha uning uyida saqlagan shaxs Turkiston general-gubernatorligi diplomatiya bo'limi sobiq amaldori A.Polovsev bo'lgan. Qabrtoshlarning saqlanib qolgan qismlari Samarqand muzeyiga olib kelinadi. Biroq Samarqand muzeyida saqlanayotgan qabrtoshning ayrim qismlari yetishmaydi. Xususan, burchak yon tomoni va qorin qismida ikkita katta bo'lak sindirib olingan.

O'shanda qabrtoshning qolgan bo'laklari qayerda ekanligi noma'lum edi, ammo yaqinda uning bir bo'lagi Fransiyaning Luvr muzeyida ekanligi ma'lum bo'ldi (<https://collections.louvre.fr/en/ark:/53355/cl010320024>).

Qabrtoshning Luvrdagi bo'lagi quyidagicha tavsiflanadi: Abulg'oziy Sulton Bahodirxon. 1530/1533 (XVI asrning ikkinchi choragi). Samarqand. Ashyo raqami: MAO 342. Islom san'ati bo'limi.

Luvr muzeyining elektron katalogidagi qaydlarga ko'ra, ashyo 1950-yilda Fransiya'dagi kolleksiya yig'uvchi mashhur oila vakili va “Gime muzeyi” mulkdori Gime Emil Eten tomonidan Luvr muzeyining Sharq qadimiyati bo'limiga topshirilgan. Luvr muzeyidagi mazkur qabrtosh bo'lagi bir necha marta xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan. Bu qabrtosh bo'lagining Gimelar oilasi qo'lga qanday tushib qolganligi alohida tadqiqot talab etadi.

Sulton Said Bahodirxonga shayboniylar taxtiga o'tirish nasib etmagan. Ammo uning otasi Abu Said Sulton 1530-1533-yillarda shayboniylar sulolasini boshqargan.

- Enajon, mana, dorilaringizni ichib oling, keyin ovqatingizni olib kelaman, kiyimlaringizni ham tayyorlab qo'ydim. Yuvintirib, almashtiraman...

- Umringdan baraka top, kelin, iloy o'g'lim bilan qo'sha qaringlar, - Manzura momo xiyol boshini ko'tarib, Zulxumorni duo qildi.

...Manzura momo insultga chalilib, to'shakka mixlanib qoldi. Mana, bir yildan oshdi, qo'l-oyog'i ishlamaydi. O'g'li Nazirjon kuni bo'y'i ishda bo'ladi, onasiga kelin - Zulxumor qaraydi. Oq yuvib, oq taraydi, duosini oladi, Nazirjonga biror marta noli-maydi.

- Otasi, ko'nglingiz to'q bo'lsin, bemalol, xavotir olmasdan ishga borib kelavering...

Har kuni shunday tasalli bilan ishga kuza-tib qo'yadigan xotinidan Nazirjon minnatdor.

- Nazirjon! Hoy, kim bor?

- Opammi? Kelavering, men hozir...

Kir yuvayotgan Zulxumor shosha-pisha qo'llarini chayib, qaynopasiga peshvoz chiqdi: “Qalay esi kiribdimi, uch-to'rt oydan buyon qorasini ko'rsatmagan Nozima onasini yo'qlab qolibdi”.

Nozima Zulxumor bilan o'qrayib ko'rishdi.

- Enam qanday, tuzukmi?

- Xudoga shukur, ancha yaxshi, opa!

Nozima ozoda to'shakda farishtadek yotgan onasining ustiga egilib, o'pishib ko'rishgan bo'ldi.

- Enajon, tuzalib qoldingizmi?

- Xudoga shukur, ancha tuzukman, qizim.

Iloyo, kelinim omon bo'lsin, o'z onasidan ham ziyoda qarapti, qo'l-oyoqlarim asta-sekin jon-lanyapti.

Nozimaning g'ashi keldi: “Hm, o'zini parvona-dek ko'rsatib, aslida onamdan tezroq qutulishni o'ylayapti shekilli, bu megajin”.

Nozima dasturxon yozayotgan Zulxumorga zimdan yovqarash qildi:

- Kelin, bu nima ahvol, onam-

ni yolg'iz qoldirmasdan bundoq yonida o'tirsangiz bo'lmaydimi?

- Qizim, qo'y, unday dema, kelinim boshimda tunu kun parvona, hatto, meni deb ishini tashlab, ta'tilga chiqib keldi.

- Ko'rib turibman, lekin siz aytganday parvona bo'lganida allaqachon sog'ayib ketardingiz. Nazirjonni bilaman, xotinchasiga yurak yutib, miq etolmaydi.

- Opa, nega bunday deysiz, og'zim bor deb har xil bo'lmag'ur gaplarni gapiraverasizmi? Axir, bilasiz, oyim bunaqa gaplarni ko'tara olmaydi,

- Zulxumorni tuhmatdan jahli chiqib, o'zini tutib turolmadi. - O'zingiz qizi bo'la turib, to'shakka

Paxtachi farzandlari


Paxtachi tumanida tug'ilib o'sgan jamoat arboblari, olim va ijodkor, ta'lim va tibbiyot, qishloq xo'jaligi va sanoat, madaniyat va sport sohalarida mehnat qilgan faxriylar va yoshlarining yutuqlari haqidagi shu nomli kitob nashr etildi.

“Paxtachi” gazetasi kutubxonasi” turkumida chop etilgan kitobdan 90 yillik tarixga ega tumanda kamol topgan va jamiyat hayotining turli jabhalarida faoliyat ko'rsatgan, ayni paytda ish-layotgan, o'qiyotgan insonlar bilan suhbatlar, ular haqidagi ocherklar, mualliflik maqolalari o'rin olgan.

E'tiborlisi, bu materiallar tuman gazetasida 2020-yildan buyon “Paxtachi farzand-lari” ruknida e'lon qilingan va gazeta mushitariylariga yaxshi tanish.

– Bu maqolalarni to'plam holida chop etishdan muddaomiz tumanimiz ahli Paxtachining asl farzandlari haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lsin, ulardan ibrat olsin va bunday fidoiy insonlar yana ham ko'paysin, degan istak edi, – deydi “Paxtachi” gazetasi muharriri Sanjar Qurbonov. – Bu maqsadimizni tuman hokimligi, jamoatchilik qo'llab-quvvatladi va 30 nafar fidoiy yurtdoshlarimiz haqidagi ushbu kitob yaratildi. Kitobda nafaqat inson taqdirini, balki Paxtachi tumanining ma'naviy qiyofasini, uning yillar davomida shakllangan mehnatsevarlik, sadoqat va fidoiylik ruhini ham his qilish mumkin. Zero, bu kitobning bosh g'oyasi Paxtachining kechagi kuni, buguni va ertasi el farzandlari bilan bog'liq, degan g'oyani kitobxon ongiga singdirishdir.

Darvoqe, mazkur to'plam birinchi kitob sifatida nomlangan. Demak, “Paxtachi farzandlari” haqida keyingi kitoblar ham yaratiladi va hayoti, faoliyati hikoya qilishga, ibrat qilib ko'rsatishga arzigulik insonlar juda ko'p Paxtachida.



Turmush chorahalarida

mixlanib qolgan onangizni bir soat yoki bir kecha boshida turdingizmi? Men qaramayotgan bo'lsam, keling yoki olib borib qarang!

- Ey, tiling chiqib qolibdimi? - Nozima Zulxumorga gap topolmay g'udrandi.

- Ha, haqiqat mana shunday, ach-chiq bo'ladi, - Zulxumor alam bilan lablarini tishladi. U qaynopasidan bunday malomatlarini eshitaman, deb o'ylamagandi.

- Bo'ldi, bas! - Manzura momo achchiqlanib, qiziga qaradi. - Tilim bor, deb har narsani valdirayverma.

- Siz ham shumniyatning yonini olyapsizmi? Ena, men sizga achchinganimdan gapirayman, - Nozima piqillab yig'layotgan Zulxumorga xo'mrayib qaradi.

- Ket! - Manzura momo g'azab bilan Nozimaga o'qraydi. - Sen mendan hol-ahvol so'ragani

keldingmi yoki o'ldirgani? Ket!

- Men sizga achchinganimdan gapir-gandim. Holingiz tang bo'lganda to'g'ri gapirganimni tushunasiz. Yaxshi qoling, - Nozima zarda bilan chiqib ketdi.

“Nahotki, bu o'sha men ardoqlab o'stirgan qiz bo'lsa. Bu toshbag'irlik, ichi qoralik unda qachon paydo bo'ldi? Xud-di boshimda parvona bo'lib, bir qultum suv tutganday. Kelinimga rahmat aytish o'r'niga zarda qilgani nimasi?”.

Manzura momo ko'ngli vayron

bo'lib ingradi:

- Kelin, bir qultum suv bering!

- Xo'p, oyijon, mana.

Tog'aymurod ShOMURODOV.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Ёнимиздаги одамлар



сингдириб келмоқда. Кафедра қо-шидаги “Муסיқа таълимини ўқитиш” илмий тўғараги орқали кўплаб икти-дорли талабаларнинг илмий излани-шларига йўл очиб берган ва юзлаб шоғирдлар тайёрлаган.

Тўрт нафар фарзанднинг отаси, кўплаб набираларнинг суюкли бобо-си бўлган устозни табарруқ етмиш ёши билан чин дилдан муборакбод этамиз.

Б.БОЛТАЕВ,
Самарқанд давлат педагогика институти муסיқа таълими кафедраси мудири, доцент.

Самарқанд туманида яшовчи, тўқсон ёшни қаршилаётган Яҳё Низомов ҳали-ҳануз илм-маърифат йўлида ҳормай-толмай изланиб келаётган нуронийларимиздан саналади. Отахон ўзининг бой ҳаётий тажрибаси, кенг дунёқараши ва чуқур билими билан атрофдагилар ҳурмат-эътиборини қозониб келмоқда.

Илмни ҳаёт мазмунига айлантирган нуроний

Яҳё Низомов 1938 йил 20 февралда Са-марқанд туманининг Гўлбоғ қишлоғида туғил-ган. Тинимсиз меҳнати ва изланишлари туфай-ли ўрта мактабда ўқиб юрган йиллариданоқ билимга чанқок ўқувчилар сафидан жой олган. Талабалик давридан бошлаб эса илмий-маъри-фий савиясини ошириш учун изланган, китоб ўқишни қанда қилмаган.

Кўп йиллар имом сифатида ишлаб, ода-мларни эзгу ишлар, савоб амаллар қилишга чақирган.

- Агар тарихга назар солсак, юртимиздан етишиб чиққан буюк алло-малар ислом динининг асл моҳиятини очиб бериш, мураккаб масалаларни тўғри англаш ва илмий асосда тушунтириш борасида мислсиз илмий мерос қолдирганига гувоҳ бўламиз, - дейди Яҳё Низомов. - Имом Бухорий, Имом Мотуридий, Имом Термизий, Хожа Ахрор Валий каби улўғ зотлар бутун ду-нёда эъзозланади. Мен бир оддий илми толиб сифатида йиллар давомида шу алломаларнинг бой меросини ўрганиш билан шуғулландим. Ислом дини инсонни доимо эзгуликка, камтарликка хорлайди, уни маънавий камолот сари етаклайди.

Афсуски, шўро даврида диний тарбияга эътибор берилмади, кишиларни ахлоқли бўлишга чорловчи урфларимиз унутилди. Бу эса тарбиядаги миллий кадриятларимизнинг йўқолишига ва одобдан йироқ бўлган иллатларнинг кўпай-ишига сабаб бўлди. Масалан, ёшлигимизда бобо-бувиларимиз ҳар бир ишда одобни устувор қўярди.

Яҳё бобо диний таълим муассасаларида таҳсил олмаган бўлса-да, дин пешво-ларининг кўплаб асарларини мутулаа қилган. У ислом динига бағишланган ўнлаб дoston ва шеъраларни ёддан билади. Айниқса, Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий, Хожа Ҳофиз, Бедил, Махтумқули, Сўфи Оллоёр, Машраб, Увайсий, Зебунисо каби мумтоз шоирлар ғазалларини ўринли қўллай олади.

Бухоро, Сўрхондарё, Тошкент ва бошқа вилоятларда фаолият юритаётган кўплаб илм ахли Яҳё бобонинг қомусий билимига тин бериб, у кишига юксак баҳо беришган.

- Яҳё бобо нафақат диний билим соҳиби, балки санъат ва муסיқа билим-дони сифатида ҳам кўпчиликка таниш, - дейди Самарқанд тумани Миронқул маҳалласида яшовчи Маъруфжон Бозоров. - У киши қўшиқчи сўзлар маъноси ва муסיқалар мазмунига алоҳида эътибор қаратади. Сўхбатлаган киши ундан маънавий озуқа олади, чунки очик, дилкаш ва оқилона мулоқоти билан кишилар қалбига йўл топади.

Яҳё Низомов шахсида мардлик, камтарлик, ҳалоллик, ҳақгўйлик, самимийлик каби олий фазилатлар мужассам. У киши умр йўлдоши Истадой Низомова билан бирга фарзандлари - Бахтиёр (жойи жаннатдан бўлсин), Хилола, Дилфуза, шунингдек, бир этак невра ва эвараларни илм-маърифатли қилиб тарбиялаб келмоқда.

Биз табарруқ ёшни қаршилаётган отахон, муаллим ва мураббий Яҳё бобо Низомовни қутлаб, сихат-саломатлик тилаймиз.

Зоҳир ҲАСАНЗОДА.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 858 nusxada chop etildi. Buyurtma 15. Hajmi 2 bosma tabqa, bichimi A-2


Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda